

## TALIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

**Bo'riyev Samandar Hamid o'g'li**

*Samarqand davlat chet tillari instituti Xorijiy til va adabiyoti  
fakulteti 2-kurs bosqich talabasi,*

**Sh.Mamayoqubova**

*Ilmiy rahbar:*

**Аннотация:** *Ushbu maqolada, zamonaviy ped texnologiyalar va ularning o'quv jarayonini yaxshilashga va o'quvchilarning bilimini oshirishga bo'lgan ta'sir ta'kidlanadi. Bu texnologiyalar interaktiv darsliklar, online ta'lim platformalari, qo'llanmalar va ilovalar, virtual realitet (VR) va kengaytirilgan realitet (AR), multimedialar kabi imkoniyatlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ular o'quvchilarning o'zlashtirish, tahlil qilish va ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi. Shuningdek, bu texnologiyalar motivatsiyani oshirish, o'rganish jarayonini qiziqarliroq qilish va o'quvchilarning tahlil qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.*

**Калит so'zlar:** *Interfaol darsliklar, Onlayn ta'lim platformalari, Qo'llanmalar va ilovalar, Virtual va kengaytirilgan realitet, Ta'lim texnologiyalari, Multimediyalar.*

**Буриев Самандар Хамидович**

*Самаркандский Государственный институт иностранных языков студент  
2 курса факультета иностранных языков*

**Ш.Мамаёкубова**

*Научный руководитель:*

**Аннотация:** *Эта статья о современных образовательных технологиях. Эти технологии оказывают положительное влияние на улучшение процесса обучения студентов и расширение их знаний. Они включают интерактивные учебники, онлайн-платформы для обучения, руководства и приложения, виртуальную реальность (VR) и дополненную реальность (AR), мультимедиа и другие возможности. Эти технологии помогают развивать способности студентов к усвоению, анализу и творчеству. Кроме того, они повышают мотивацию, делают процесс обучения более увлекательным и способствуют развитию аналитических навыков студентов.*

**Ключевые слова:** *Интерактивные учебники, Онлайн образовательные платформы, Пособия и приложения, Виртуальная и дополненная реальность, Педтехнологии, Мультимедия.*

**Buriev Samandar Khamidovich**

*Samarkand state institute of foreign languages, 2nd year student of the Faculty of  
Foreign languages,  
Sh.Mamayokubova  
Scientific Supervisor:*

**Abstract:** This article is about modern educational technologies. These technologies have a positive impact on improving students' learning process and enhancing their knowledge. They encompass interactive textbooks, online learning platforms, manuals and applications, virtual reality (VR) and augmented reality (AR), multimedia, and other possibilities. These technologies help develop students' abilities to assimilate, analyze, and create. Additionally, they enhance motivation, make the learning process more engaging, and contribute to the development of students' analytical skills.

**Keywords:** Interactive textbooks, Online educational platforms, Manuals and applications, Virtual and augmented reality, educational technologies, multimedia.

## **KIRISH**

*Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun 3ta narsa kerak:  
Diqqat, intizom va harakat.*

*Jaloliddin Rumiy*

Bugungi kunda nafaqat O'zbekiston balki butun dunyo ta'lim tizimida zamonaviy ped texnologiyalardan foydalanish asosan maktab o'quvchilarini o'z vaqtdan unumli foydalanish, o'rganayotgan fanini to'laqonli tushunish, uni analiz qilish va xulosa chiqarish, shu bilan birgalikda o'quv jarayonini yaxshilash va o'quvchilarning bilim darajasini oshirish uchun yangi texnologiyalardan foydalanishni ta'kidlaydi. Bu texnologiyalar, interaktiv darsliklar, online ta'lim platformalari, qo'llanmalar va ilovalar, virtual realitet (VR) va kengaytirilgan realitet (AR), multimedialar kabi imkoniyatlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning o'zlashtirish, tahlil qilish va ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular motivatsiyani oshirish, o'rganish jarayonini qiziqarliroq qilish va o'quvchilarning tahlil qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Hozirgi paytda O'zbekistondagi o'rta ta'lim maktablarida asosan 10 va 11-sinf o'quvchilari odatda o'qituvchilarga ko'p qiyinchiliklar keltirib chiqaradigan o'quvchilar guruhi sifatida qaraladi. Agar biz pedagog va mutaxassislar bu masalaga jiddiy qaramasak va ularning qiziqishlari, yosh xususiyatlari bilan hisoblashmas ekanmiz, ular o'z (aurasi) qobig'iga o'ralib qolaveradi. Bu turdagi muammolar kelib chiqaversa, yoshlar o'rtasidagi ta'lim tizimida keskin pasayish kuzatilishi mumkin, bu muammoga yechim sifatida har bir o'qituvchi o'z ustida mukammal ishlashi zarur, ya'ni har bir darsga mavzu yuzasidan o'zini qayta va qayta tayyorlashi, tushuntirayotgan mavzusini o'quvchilar to'liq

o'zlashtirganiga ishonch hosil qilishi va darslardan tashqari vaqtda o'quvchilari bilan individual ravishda shug'ullanishi va ularga (motivatsiya) dalda berishi kerak bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida ingliz tilini o'rgatish va o'rganishning mashhur usullaridan, internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariydeduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillardan foydalanildi.

O'qituvchining vazifasi har bir talaba uchun tilni amaliy o'zlashtirish uchun kerak bo'lgan sharoit va muhitni yaratish, har bir o'quvchiga o'z faolligini, ijodkorligini oshirishga va namoyish etishiga imkon beradigan shunday o'qitish usullarini tanlashdir. O'qituvchining yana bir vazifasi bu chet tillarini o'rgatish jarayonida talabalarning bilish faoliyatini va kerakli mavzuni to'liq tushunish jarayonini faollashtirishdir. Hamkorlikda o'rganish, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, Internetresurslari kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi. Chet tili darslarida kompyuter yordamida o'qitish dasturlari bilan ishlash shakllariga quyidagilar kiradi: so'z boyligini o'rganish; talaffuz qilishni mashq qilish; dialogik va monologik nutqni o'rgatish; yozishni o'rgatish; grammatik hodisalarni ishlab chiqish.

Hozirgi kunda Internet tarmog'i sezilarli darajada rivojlangani sababli Internet resurslaridan aynan ta'lim olish jarayonida foydalanish imkoniyatlari juda katta. Global Internet tarmoqlari hozirgi paytda dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan har bir talaba va o'qituvchilar uchun kerakli bo'lgan zarur ma'lumotlarni topishga yordam beradi, misol uchun: mintaqaviy geografik materiallar, yoshlar hayotidagi yangiliklar, siyosiy yangiliklar, gazeta va jurnallardan maqolalar va boshqa ma'lumotlarni istalgan tilda topish imkoni bor.

Yuqorida aytib o'tilganidek zamonaviy pedagogik texnologiyalar va internet resurslari o'quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga yo'l qo'yadigan muhim va asosiy vositalardir. Bu texnologiyalar o'quvchilarning o'zlashtirish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga katta yordam beradi. Internet-resurslardan foydalangan holda chet tillarini o'rgatishning asosiy talablaridan biri bu darsda o'zaro ta'sirni yaratishdir, bu metodika odatda interaktivlik deb nomlanadi. Interaktivlik - bu "nutq vositalari yordamida kommunikativ maqsad va natijadagi sa'y-harakatlarni birlashtirish, muvofiqlashtirish va to'ldirish". Interaktivlik nafaqat hayotdan real vaziyatlarni yaratibgina qolmay, balki talabalarni chet tilida ularga munosib javob berishga majbur qiladi. Bu tadqiqotlar quyidagi asosiy natijalarga ega bo'lib keladi:

1. Interaktiv darsliklar: Interaktiv darsliklar o'quvchilar bilan sinfdagi dars jarayonida o'zaro muloqot va ishbirlikni oshirish imkonini beradi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi va ularni motivatsiyalaydi. Bunga qo'shimcha qiladigan bo'lsak, har bitta o'quvchi guruhning deyarli 80-90% (extrovert) ya'ni ular ancha kirishimli va muloqotchan, ular o'rtasida asosan ta'lim olish jarayonida qiyinchilik va muammolar yuzaga kelmaydi, biroq qolgan 20-10% o'quvchilar esa (introvert) ya'ni ularning darsga bo'lgan qiziqishi ancha pastroq va ular asosan dars jarayonida o'z fikrini bildirishga qo'rqishadi, ularda muloqot qilishda biroz

qiyinchiliklar va uyalish hissi kuzatilishi mumkin. Bu turdagi muammolarni bartaraf qilish uchun interaktiv darsliklar muhim o'rin tutadi.

2.Onlayn ta'lim resurslari: Onlayn ta'lim resurslari o'quvchilarga mustaqil o'rganish imkonini beradi. Bu resurslar o'quvchilarning o'z vaqtida va o'z tempida bilimlarini oshirishga yordam beradi. Hozirgi paytda internet resurslari va onlayn ilovalar ancha rivojlangan bo'lib bu imkoniyatlar o'quvchini bilim olish jarayonini 2 baravar tezlashtirish imkonini beradi, misol uchun: talaba yoki maktab o'quvchisi darslardan tashqi vaqtlarda onlayn ilovalar va platformalardan foydalanib o'z ustida mustaqil shug'ullanishi mumkin. Bular quyidagi ilovalar va multimediya dasturlarini o'z ichiga oladi:

3.Mobil ilovalar: Mobil ilovalar ta'limda pedagogik jarayonining asosiy maqsadi sifatida o'quvchilarni har tomonlama rivojlantiradi. Ta'lim jarayonining yo'nalishi o'quvchilarni tayyorlash va rivojlantirishning yanada aniq maqsad va vazifalarini, shuningdek uning mazmunini belgilaydi. Maqsad va mazmun mobil ta'lim pedagogik jarayonining eng muhim mazmun-maqsadli komponentidir. Mobil ilovalar yordamidagi ta'limning pedagogik jarayonini tashkil etish va amalga oshirishning asosiy bosqichi ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning quyidagi elementlarini o'z ichiga oladi: faoliyatning maqsad va vazifalarini belgilash va tushuntirish, ularni pedagogik jamoa tomonidan qabul qilish; mobil ilovalar ishtirokidagi ta'limning pedagogik jarayonini tashkil etishning tanlangan usullari, vositalari va shakllarini amalga oshirish; barcha sub'yektlarning o'zaro ta'sirini ta'minlash; qulay sharoitlar yaratish, shu jumladan xavfsizlik va ekologik tozalikni ta'minlash; talabalarining faolligini rag'batlantirish bo'yicha turli tadbirlarni amalga oshiradi shu bilan birgalikda mobil ilovalar o'quvchilarning mobil qurilmalar orqali o'rganishini osonlashtiradi. Bu ilovalar o'quvchilarning o'zlashtirish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Quyida ta'lim olish uchun foydali mobil ilovalar ro'yxati berilgan:

4. Raqamli texnologiyani o'zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu – xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib. unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishi xammamizga ma'lum misol qilib aytganda, Virtual va qo'shimcha realitiyalar: Virtual va qo'shimcha realitiyalar o'quvchilarning o'zlashtirishni yanada samarali qilishga imkon beradi. Bu texnologiyalar o'quvchilarni ma'lum bir muhitda o'rganish imkoniyatiga sharoit yaratib beradi. VR va AR texnologiyalari haqiqiy dunyoni inson ko'zidan berkitadi va unga virtual olam orqali o'rganayotgan

predmetiga diqqatini 100% qaratishiga, uni tushunishiga, analiz qilish va yaratishiga yordam beradi, afsuski hozirgi paytda O'zbekiston ta'lim tizimida hozirgacha VR va AR texnologiyalari kirib kelmaganligi va undan foydalanilmasligi o'quvchilarni ta'lim olish samaradorligini ancha pasaytiradi.

5. Qo'llanmalar va dasturlar: Qo'llanmalar va dasturlar o'quvchilarga ma'lumotlarni tahlil qilish va o'zlashtirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning analitik va muhokama qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tadqiqotlar va muhokamalar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quv jarayonida samaradorlik va interaktivlikni oshirishga qaratilgan yo'l vaqtincha foydalanishning muhimligini ko'rsatadi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, o'zlashtirish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi va o'quv jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonini interaktiv va samarali qilish uchun muhim vositalardir. Bu texnologiyalar o'quvchilarning o'zlashtirish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqotlar va muhokamalar bu texnologiyalarining o'quv jarayonida qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Interaktiv darsliklar o'quvchilar bilan muloqot va ishbirlilikni oshirish imkonini beradi. Onlayn ta'lim resurslari o'quvchilarga mustaqil o'rganish imkonini beradi. Mobil ilovalar mobil qurilmalar orqali o'rganishni osonlashtiradi. Virtual va qo'shimcha realitiyalar o'quvchilarning o'zlashtirishni samarali qilishga imkon beradi. Xullas, O'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi; hamisha pedagog va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1 Xotamov Jahongir Saloxiddinovich, "INGLIZ TILINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR" Uchinchi renessans: ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti istiqbollari – 2021,

2 Hamroqulov To'lqinjon Tohirovich, "Ta'limda Zamonaviy Pedagogik texnologiyalar" Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, Scientific Journal Impact Factor, Advanced Sciences Index Factor – 2022,

3 Mirzahmedova Nargiza Dilmurodovna, RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM SOHASIDA QO'LLANILISHI, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, Scientific Journal Impact Factor, Advanced Sciences Index Factor – 2022,

4 Feruza Maxmudovna Zakirova, TA'LIM JARAYONIDA MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI, Academic Research in Educational Sciences – 2022, Multidisciplinary Scientific Journal

5 Maktabgacha ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuv | O'zLiDeP